URBANIZATSIYA JARAYONI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Husanov Suxrob Samariddin o'g'li
Navoiy Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisligi magistratura bitiruvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda jahon bo'yicha urbanizatsiya jarayonlari tahlili, urbanizatsiyaning tarixiy ko'rsatkichlari, aholining qishloqlardan shaharga tomon ko'chishi, shaharlar maydoning kengayib borishi ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, Dehli shahrining atrofga kengayishi jarayoni xaritalashtirilgan va qishloqlarning shahar maqomini olishi jarayonlari tasniflangan.

Kalit so'zlar. Urbanizatsiya, urbanizatsiya darajasi, BMT, Shaharlar maydonining atrof yerlarga kengayishi, Qishloqlardan shaharlar tomon bo'lgan migratsiya, sanoat inqilobi, shahar maqomining berilishi.

THE URBANIZATION PROCESS AND STAGES OF ITS DEVELOPMENT

Abstract. This thesis provides a scientific analysis of urbanization processes worldwide, historical urbanization indicators, population migration from rural areas to cities, and the expansion of urban territories. In addition, the process of Delhi's expansion into the surrounding areas is mapped, and the processes through which rural settlements acquire urban status are classified.

Keywords. Urbanization, urbanization rate, United Nations (UN), expansion of urban areas into surrounding lands, rural-to-urban migration, Industrial Revolution, granting of urban status.

ПРОЦЕСС УРБАНИЗАЦИИ И ЭТАПЫ ЕГО РАЗВИТИЯ


Аннотация. В данном тезисе с научной точки зрения проанализированы процессы урбанизации в мире, исторические показатели урбанизации, миграция населения из сельской местности в города, а также расширение территориальных границ городов. Кроме того, картографирован процесс расширения города Дели на окружающие территории и классифицированы процессы перехода сельских населённых пунктов в категорию городских.

Ключевые слова. Урбанизация, уровень урбанизации, ООН, расширение городской территории на прилегающие земли, миграция из сельской местности в города, промышленная революция, присвоение статуса города.

Urbanizatsiya – shaharlar aholi sonining oshishi, maydonining kattalashishi, shahar turmush sharoitining kengayishi, umuman olganda shaharlarning mamlakat miqyosida rolining oshishidir. Urbanizatsiya lotincha so'zdan olingan bo'lib, "urbs" – "shahar" degan ma'noni anglatadi.

Urbanizatsiya jarayonlariga oid muhim tushunchalardan biri – urbanizatsiya darajasidir. Urbanizatsiya darajasi – mamlakat Shahar aholisining mamlakat jami aholisiga nisbatan ulushining foiz ko'rsatkichidir. O'rta asrlarda urbanizatsiya darajasi jahon bo'yicha juda past ko'rsatkichlarda bo'lgan. Jumladan, 1800-yillarda jahon aholisining bor yo'g'i 3 %i shaharlarda yashagan. Keyingi bir asr davomida ham urbanizatsiya darajasi osishi juda sekin kechgan. Ammo, 1960-yillarda ro'y bergan demografik portlash, avtomatlashtirish va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi urbanizatsiyani ham jadal kengaytirib yubordi. (1-rasm)

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.



1-rasm. Jahon urbanizatsiya daraasi.

BMTning ma'lumotlariga ko'ra, 1950-yillarda dunyo aholisining 29 %i shaharlarda istiqomat qilgan. 2000-yillarda esa bu ko'rstakich 49 % ga yetdi. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkichlar yana ham balandroq. Xususan, AQSHda 1950-yillardagi 64 % dan, 2007-yilda 81 % ga o'sdi. Ushbu davr mobaynida Yaponiyada bu ko'rsatkich 40 % dan 66 % ga o'sdi.

Jahon urbanizatsiyasining jadal o'sishiga 3 ta omil katta ta'sir ko'rsatgan:


- Qishloqlardan shaharlar tomon bo'lgan migratsiya (rural flight);
- Shaharlar maydonining atrof yerlarga kengayishi;
- Qishloqlarga Shahar maqomining berilishi;

Qishloqlardan shaharlar tomon bo'lgan migratsiya - rural flight. Pre-modern dunyoda qishloqlardan shaharga aholi ommaviy ko'chish jarayoni kuzatilmagan. Bunga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, shaharlar sig'imining katta emasligi, ish bilan ta'minlash quvvatining pastligi, shaharlarda aholi o'limining ko'pligi, oziq-ovqat bilan ta'minlashdagi muammolar va boshqalar ta'sir ko'rsatgan. Ammo, sanoat inqilobidan boshlab vaziyat butunlay o'zgardi. Yevropa hukmdorlarining "bunyodkor buzg'unchilik"dan qo'rqmagani sabab Yevropada ixtirolar sonining keskin oshishi ko'p miqdorda ishlab chiqarish jarayonini boshlab berdi. Natijada, ko'p miqdorda ishlab chiqarish – ko'p miqdorda mehnat resurslariga ehtiyojni oshirib yubordi. Xususan, Buyuk Britaniyada 1800-yillarda 20 % aholi shaharlarda yashagan bo'lsa, 1925-yilga kelib urbanizatsiya darajasi 70 % dan oshib ketdi.

Insonlarning qishloq aholi manzilgohlaridan shaharga ko'chishini aholining o'z ehtiyojlari bilan ham bog'lash mumkin. Xususan, qishloq manzilgohlarida shahar manzilgohlariga nisbatan iqtisodiy imkoniyatlarning past darajasi, qishloq manzilgohlariga davlat investitsiyalarining past darajasi, shaharlarda ta'lim olish va sog'liqni saqlash imkoniyatlarining ko'pligi, umuman olganda Shahar aholi manzilgohlarining qishloqlardan bir necha pog'ona ustun ekani qishloq aholisini shaharga ko'chib o'tishga undaydi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Shaharlar maydonining atrof yerlarga kengayishi – urban sprawl. Bu tushuncha odatda, shaharlar atrofi hududida rejasiz qurilishlar evaziga aholi zichligi yuqori bo'lmagan aholi manzilgohlari paydo bo'lishini anglatadi. Shaharlar kengayishi odatda, energiya sarfini oshishi, ifloslanish va tirbandlik muammolari bilan o'zaro bog'liq hamda jamiyatda birdamlik ruhini pasaytirishi tadqiqotlarda ko'rilgan. Xususan, AQSHda II jahon urushidan keyingi iqtisodiy farovonlik davrida ishlab chiqarish miqdori ortdi va yangi federal kredit tizimlar joriy qilinishi Amerika vatandoshlariga yakka oila uchun qurilgan uylar va shaxsiy avtomobillar sotib olishga imkon berdi. Umuman olganda, bugun shaharlar rivojlanayotgan davlatlarda tezroq kengaymoqda. Chunki, ushbu mamlakatlarda qishloq aholi manzilgohlarida insonlar farovon yashashlari uchun sharoitlar yetarli emas va tabiiyki, qishloq aholisi Shahar manzilgohlariga oqimi kuzatiladi. Jumladan, Hindiston poytaxti Dehli va uning atrof hududlarida 2017-2024-yillarda bino va inshootlar maydoni kengayganini ko'rish mumkin. (1-rasm)



1-rasm. Dehli shahrining atrofga kengayishi

Ushbu fenomen faqat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarb emas. Ko'p yillardan beri shaharlarning atrof hududlarga kengayishi faqatgina Amerika uchun dolzarbligi haqida fikrlar yangrardi. Ammo ushbu fenomen boshqa mamlakatlarda ham bo'y ko'rsata boshladi. Yevropa atrof muhit agentligi tomonidan 2002-yilda to'plangan ma'lumotlarga ko'ra, Yevropada aholi 1980-2000-yillarda atigi 6 % ga

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

o'sgan. Ammo, fazoviy ma'lumotlarga ko'ra, shu davr mobaynida qurilgan bino va inshootlar maydoni 20 % ga oshgan. Italiyaning Palermo shahrida 1950-1990-yillar

davomida aholi 50 % ga, bino va inshootlar maydoni esa 200 % ga oshgani fazoviy hisob-kitoblardan so'ng ma'lum qilingan.

Qishloqlarga shahar maqomining berilishi 2 xil holatda amalga oshadi:

1) Ma'muriy – siyosiy va iqtisodiy maqsadlarda davlat va hokimiyat qarori, aslida Shahar maqomini olish uchun ko'rsatkichlari yetarli bo'lmasada, qishloq manzilgohiga Shahar maqomini berilishi;

2) Funksional – haqiqatda Shahar ko'rsatkichlariga yetgan qishloq manzilgohiga Shahar maqomini berilishi;

Umuman olganda, turli mamlakatlarda aholi manzilgohlariga shahar maqomining berilish me'yorlari turlichadir. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida 2500 kishidan ortiq inson yashaydigan manzilgohlar Shahar deb tan olinadi. Peruda esa 100 dan ortiq aholi turar joyiga ega manzilgohlar Shahar deya tan olinadi.

Qishloq aholi manzilgohiga shahar maqomining berilishi bir qancha me'yor va indikatorlarga tayanadi. Jumladan:

a. Aholi soni va zichligi;
b. Kasblar tuzilishi – aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan kasblar bilan mashg'ul bo'lishi;
c. Infratuzilma – sanoat, transport va xizmat ko'rsatish obyektlarining mavjud ekanligi va ularning holati;
d. Iqtisodiy faoliyatning mavjudligi – tijorat, sanoat va xizmat ko'rsatish faoliyatlarining tashkil etilganligi;
e. Ma'muriy boshqaruvning mavjud ekanligi;
f. Boshqa aholi manzilgohlari bilan integratsiya – transport yo'llari, migratsiya va boshqalar;

Qishloq aholi manzilgohiga Shahar maqomining berilishining ham ijobiy, ham salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomonlari shuki,

- endi ushbu qishloq aholi manzilgohiga sanoat, xizmatlar va infratuzilma rivojlanishi uchun sarmoya kirib keladi.
- aholining ishsizlik darajasi pasayadi, manzilgoh maydoni kengayadi.

Salbiy tomonlari esa,

- soxta urbanizatsiyaning vujudga kelishi;
- qishloq xo'jaligi unumli yerlarining qisqarishi;
- bio-xilma xillikka tahdid solinishi va boshqalar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaharlar aholisi o'sishining atigi 4 %i migratsiya hisobiga amalga oshmoqda. Aholi o'sishining 2/3 qismi tabiiy ko'payish hisobiga amalga oshsa, 29 %i qishloqlarga Shahar maqomining berilishi bilan bo'lgan. Xulosa qilish mumkinki, jahon bo'yicha urbanizatsiyaning rivojlanishida qishloqlarga Shahar maqomining berilishining ham roli katta hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M., Shaharlar geografiyasi T.: 2018, B-9.
2. https://samstat.uz
3. https://stat.uz

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.